

## JAHON TARAQQIYOTINING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETILGAN BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING MAQSADLARI VA VAZIFALARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

**Shukurullayeva Ismigul Ma'rufjon qizi**

*Jizzax Davlar Pedagogika Universiteti akademik litseyi Ijtimoiy-gumanitar fanlar (yurisprudensiyasi yo'nalishi) 1-kurs talabasi*

## ДАЛЬНЕЙШЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЦЕЛЕЙ И ЗАДАЧ ООН, ОРГАНИЗОВАННЫХ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ МИРОВОГО РАЗВИТИЯ

**Шукуруллаева Исмигуль Маруфжан, дочь**

*Джизакский Давларский педагогический университет академический лицей Социально-гуманитарные науки (направление юриспруденция) студент 1 курса*

## FURTHER IMPROVEMENT OF THE GOALS AND TASKS OF THE UNITED NATIONS ORGANIZED ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS OF WORLD DEVELOPMENT

**Shukurullayeva Ismigul Ma'rufjan's daughter**

*Jizzakh Davlar Pedagogical University academic lyceum Social and humanitarian sciences (direction of jurisprudence) 1st year student*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola hozirgi kunda va o'tmishda dunyo mamlakatlarida har bir jamiyat va davlatning asosiy mezoni sifatida e'tirof etiladigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining butun jahon standartlari asosida tashkil etilgani hamda dunyo miqiyosida ushbu tashkilotning asosiy maqsad va vazifalarining samarali tarzda amalga oshirilishi hamda rivojlantirishning yangi yo'nalishlari o'rnatilgan Jahon taraqqiyotida Ikkinchi jahon urushi (1939-1945) tugagach, 1945-yil 24-oktabrda Amerka Qo'shma Shtatining (AQSH) San-Fransisko shahrida 51 ta mamlakat vakillari yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, mamlakatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida Tinchlik Konstitutsiyasi deb hisoblashga haqli bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Nizomini imzolashgan edi. Barchamiz yaxshi bilamizk, hozirgi kunda 193 ta mamlakat, shu jumladan, ona yurtimiz O'zbekiston ham 1992-yilning 2-mart sanasidan boshlab BMTning to'la huquqli a'zosiga aylanganini hamda boshqa davlatlar bilan bir qatorda teng vakolatlar va imkoniyatlar bilan ta'minlangan. BMTning xalqaro miqyosdagi funksiyalarini va rejalariga yangi tamoyillar kiritilishi haqida.*

**Kalit so'zlar:** *BMT, jahon taraqqiyoti, xalqaro standartlari, asosiy sezon, Ikkinchi jahon urushi, AQSH, San-Fransisko, Tinchlik Konstitutsiyasi, BMT Nizomi, vakolatlar, imkoniyatlar, tamoyillar, mustahkamlash va ta'minlash.*

**Аннотация:** Данная статья основана на глобальных стандартах Организации Объединенных Наций, которые признаются главным критерием деятельности каждого общества и государства в странах мира сегодня и в прошлом, а также эффективной реализации основных целей и задач этой организации в глобальном масштабе и новый путь развития. После окончания Второй мировой войны (1939-1945 гг.), 24 октября 1945 г., представители 51 страны встретились в Сан-Франциско, Соединенные Штаты Америки, чтобы укрепить мир и безопасности на земле, подписали Устав Организации Объединенных Наций (ООН), который имеет право считаться Конституцией мира, в целях развития взаимного сотрудничества. Все мы знаем, что 193 страны, в том числе и наша родина, Узбекистан, стали полноправными членами ООН со 2 марта 1992 года и наделены равными полномочиями и возможностями наравне с другими странами. О внесении новых принципов в функции и планы ООН на международном уровне.

**Ключевые слова:** ООН, мировое развитие, международные стандарты, основной сезон, Вторая мировая война, США, Сан-Франциско, Мирная Конституция, Устав ООН, полномочия, возможности, принципы, укрепление и обеспечение.

**Abstract:** *This article is based on the global standards of the United Nations Organization, which is recognized as the main criterion of every society and state in the countries of the world today and in the past, and the effective implementation of the main goals and tasks of this organization on a global scale and a new way of development. After the Second World War (1939-1945) ended, on October 24, 1945, representatives of 51 countries met in San Francisco, United States of America, to strengthen peace and security on earth, signed the Charter of the United Nations Organization (UN), which has the right to be considered the Constitution of Peace, in order to develop mutual cooperation. We all know that 193 countries, including our motherland, Uzbekistan, have become full members of the UN since March 2, 1992, and are provided with equal powers and opportunities along with other countries. . About the introduction of new principles to the functions and plans of the UN at the international level.*

**Key words:** *UN, world development, international standards, main season, World War II, USA, San Francisco, Peace Constitution, UN Charter, powers, opportunities, principles, strengthening and provision.*

## KIRISH

Birlashgan Millatlar Tashkiloti vujudga kelib, jahon o'z taraqqiyoti yo'lini topgan davrga qadar butun insoniyat tarixida sayyoramizda 15 mingdan ortiq urushlar bo'lib o'tgan va ularda 3.5 milliarddan ortiq odam halok bo'lgan. Shuning uchun ham kishilar hamma va vujudga kelgan muammolarni tinchlik yo'li hal qilish ustida bosh qotirganlar. Shunga qaramasdan ushbu mustaqil tashkilotni tashkil etishdi va hozirda BMT dunyo mamlakatlari oldida o'z o'rniga ega. BMT Ustavi San-Fransisko shahrida, 1945-yilda imzolangan bo'lsada, aslida tashkilotning barpo etish to'g'risidagi qaror SSSR(sobiq sovet sotsiologik respublikasi), AQSH,

Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943-yilda qabul qilingan hamda hozirgi vaqtda BMTning doimiy ish o'rnini, ya'ni bosh idorasi Nyu-York shahrida (AQSH) joylashgan. BMT Ustavida ko'rsatilganidek, ushbu idora xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huquqli bo'lishi va qoidasiga amal qilib, millatlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o'rtasida hamkorlik bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutib, shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatini uyg'unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi. Hozirda ushbu markazda BMT o'z maqsadlari va vazifalarini amalga oshiradi. Shunday ekan, BMTning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- butun dunyoda tinchlikni qo'llab-quvvatlash;
- do'stona munosabatlarni rivojlantirish;
- kambag'allik, qashshoqlik, kasallik, savodsizlikni tugatish;
- atrof-muhitga yetkazilayotgan zararning oldini olish;
- inson huquqlariga va erkinliklarini himoya qilish.

Yuqorida sanab o'tilgan BMTning faqat maqsadlari bo'lsa, tashkilot o'z maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun oltila bosh organdan iborat o'z tuzilmalariga ham ega.

|                               |   |
|-------------------------------|---|
| Bosh Assambleya               | BMTning eng vakolatli organi hisoblanadi. Uning ishida 193 mamlakat qatnashadi, ular har yili global tuzdagi 150 dan ortiq masalani muhokama etishadi.  |
| Xavfsizlik kengashi           | 5 ta davlatdan (AQSH, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Fransiya) va 2 yil muddatga saylanadigan 10 ta doimiy bo'lmagan qatnashchilardan tarkib topgan Xavfsizlik Kengashi tinchlik va xavfsizlikni saqlash masalalari ko'rib chiqadi. |
| Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash | BMTga a'zo 54 davlatdan iborat, sotsial-iqtisodiy masalalarni ko'rib chiqadi.   |
| Vasiylik Kengash              | Sobiq mustamlaka kolonial yerlarning o'z yo'nalishini aniqlashga yordamlashadigan kuzatuv organi.   |
| Xalqaro Sud                   | 15 sudyadan iborat bo'lib, davlatlar o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqadi, shuningdek xalqaro muammolar bo'yicha konsultativ xulosalar beradi.  |
| Kotibiyat                     | BMT Bosh Kotibi tomonidan boshqariladi va ma'muriy organi hisoblanadi.  |

Bundan tashqari BMTning barcha a'zolari o'z harakatlarida quyidagi tamoyillarga amal qilishga majburdirlar:

- tenglik;
- xalqaro norma va bitimlarga rioya qilish;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish;

- kuch bilan tahdid qilish yoki uni qo'llashdan voz kechish;
- ichki ishlarga aralashmaslik;
- hamkorlik.

Ushbu ta'kidlangan tamoyillarni amalga oshirish barcha tashkilot a'zolarini qabul qilgan mamlakatlarning majburiyatidir. Negaki bu tamoyillar asosida ish ko'rmaydigan mamlakatlar BMTga a'zo bo'la olishmaydi, yoki tashkilot a'zolidan ham chetlatilishi mumkin. Ammo hozirgi kunda deyarli barcha BMTning a'zolari nafaqat ushbu tamoyillar bilan ish olib borishadi, balki tashkilotning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini yanada takomillashtirish to'g'risida ham fikr yuritishadi. Ayni vaqtda biz yoshlar BMTning rejalari hamda funksiyalarini o'rganib, ularni qayta ishlab, yangiliklar kiritishni, maqsadlarimizdan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, hozirgi vaqtda ko'p imkoniyatlar yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga ishtiyoq bag'ishlash uchun yaratilmoqda. Shu imkoniyatlardan foydalangan holda, BMTning maqsad va vazifalarini rivojlantirish uchun quyidagi funksiyalardan iborat:

- tashkilot a'zolari o'rtasida turizmni shakllantirish;
- yoshlar va tashkilot a'zolari o'rtasida training tashkil qilish;
- fuqarolarni xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligini rivojlantirish hamda shu kabi boshqa vazifalarni jahon tashkilotlari bilan birgalikda amalga oshirsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqorida ta'kidlangan funksiyalari ham fuqarolar o'rtasida ham yoshlarni jahon taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shish uchun eng yaxshi imkoniyatlar sanaladi.

### XULOSA

Xulosalarga ko'ra, shuni ham inobatga olish joizki, nafaqat BMTning, balki boshqa xalqaro tashkilotlar ham o'z rejalari va funksiyalariga qo'shimchalar kiritish natijasida bundanda yuqori natijalarga erishishlari mumkin. Shunchaki, xalqaro tashkilotlar o'zi tomonidan belgilangan maqsad va vazifalari bilan cheklanib qolmasdan, tashkilot a'zolari bilan fikr almashgan holda qo'shimcha o'zgarishlar va yangiliklar ham kiritib turishlari kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 10-sinf "Davlat va huquq asoslari" darsligi 1-nashr Toshkent-2017  
3-mavzu 17-18-19 - betlar.
2. Arxiv.uz
3. Unic.un.org
4. Uz.m.wikipediya.org